



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING OG'ZAKI NUTQINI SHAKILLANTIRISH

Soyibova Shahnoza To'lqinovna
Narzullayeva Elmira Qahramon qizi
boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari

Annotatsiya: *Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida og'zaki nutqni rivojlantirishning ayrim jihatlariga to'xtalib o'tilgan. Shuningdek nutqni rivojlantirishga qaratilgan bir qancha tavsifiyalar ko'rsatilgan.*

Kalit so'zlar: *metod, talaffuz, intonatsiya, matn, maqol, tafakkur, fikr.*

O'qish inson hayotida muhim ahamiyatga ega. O'qish orqali inson borliq, jamiyat haqida bilimga ega bo'ladi, o'qishni bilmagan odamning ko'zi ojiz kishidan farqi yo'q. Boshlang'ich sinfda o'qish faoliyati barcha predmet darslarida amalga oshiriladi. Lekin o'qishga o'rgatishning yo'l – yo'riqlarini o'qish metodikasi ishlab chiqadi. O'qish metodikasining kichik yoshdagi o'quvchilarning umumiy rivojlanishi, xususiyl metodika sohasidagi yutuqlar borliq fanlar yutugi asosida shakllanib boradi. Masalan, eski maktablarda quruq yod olish metodida o'rganilgan bo'lsa, hozirgi maktablarda o'qish izohli o'qish metodida olib boriladi. Yod olish metodida matndagi so'zlarga izoh berishga, mazmunini tushuntirishga, oqilganini qayta hikoyalashga, umuman olganda, o'qishning ongli bo'lishiga mutlaqo e'tibor berilmagan. Ularda ko'proq to'g'ri talaffuzga, qiroat bilan o'qishga, katta e'tibor berilgan. Shuning uchun, hozir maktablarda o'qish izohli o'qish olib borilyapti.

Og'zaki nutqni rivojlantirish jarayonida xatolar turli sabablarga ko'ra chiqadi:

1. So'zni talaffuz qilish bilan uning ma'nosini tushunish o'rtasida puxta talaffuz qilishga harakat qiladi. va ma'nosini e'tibordan chetda qoldiradi.
2. So'zlar ko'p bo'ginli (murakkab bo'g'in tuzilishidagi so'zlarni o'qishda), ya'ni sozning tovush tarkibi murakkabligi uchun tez o'qiyman deb xatoga yo'l qo'yadilar.
3. To'g'ri o'qish yorug'likka, matn shriftiga, bolaning ko'ruv sezgisiga ham bog'liq. To'g'ri talafuzni ta'minlash uchun o'qituvchi quyidagilarga rioya qilishi kerak:
 1. Matnni o'qishdan oldin undagi o'qilishi qiyin, tuzilishi murakkab so'zlarni, birikma va gaplarni aniqlashi, ular ustida ishlash usullarini belgilab olishi lozim.
 2. Ma'nosi tushunarsiz so'zlarni aniqlashi.
 3. Matnning yaxsh, orta, yomono'qiydigan o'quvchilarga o'qitiladigan qismini oldindan belgilab chiqishi.
 4. O'qituvchi yoki sinf o'quvchilarining nazorati ostida o'qishni doimiy mashq qildirishi.

O'qituvchi o'qish davomida o'quvchilar xato qilishi mumkin bo'lgan o'rinni belgilab olishi lozim. Xato o'qishni bartaraf etish uchun:

1. Tuzilishi murakkab so'zlarni xat taxtaga yoki kartonga bo'g'inlarga bo'lib yozish, oldin o'quvchilarga ularni bo'g'inlab, so'ng sidirg'a o'qishni mashq qildirishi.



2. So'z ma'nolarining sinonimi, antonimini keltirib, yoki gap ichida qo'llab tushuntirishi.

3. Xat cho'pdan foydalanish. Xat cho'p diqqati tarqoq bolaga, ko'ruv sezgisi past o'quvchida juda foydali.

4. Xato o'qishi mumkin bo'lgan o'rindan o'quvchini ham ogohlantirish.

5. Kesma harf va kesma bo'g'inlardan foydalanish.

6. To'g'ri o'qish uchun sharoit yaratish.

7. Shivirlab va ichda o'qishdan foydalanish.

O'quvchilar kitobdan o'qishda 2 xil xato qilishadi:

1. So'z ma'nosini noto'g'ri anglashga olib keluvchi xatolar. (urg'uni noto'g'ri qo'yib o'qish tuifayli)

2. So'zlarni o'qib olishga halal beradigan xatolar.

Ongli o'qish asar mazmunini, asarning g'oyaviy yo'nalishini, timsollarini, badiiy vositalarni ro'lini tushunib o'qish ongli o'qish deyiladi. Bola asarda tasvirlangan voqea hodisalarga munosabat bildira olsa, ongli o'zlashtirgan bo'ladi. Ongli o'qish quyidagi metodik shartlarga bo'g'liq:

1. O'quvchuning hayotiy tajribasiga.

2. So'zlarning lug'aviy ma'nosini tushunishiga.

3. Gapda so'zlarning tushunishiga.

Ongli o'qish 2 xil ma'noda qo'llaniladi: O'qish texnikasi, O'qish sifati. Asar qurilishini tushunish ongli o'qishdir. O'quvchining ongli o'zlashtirib o'qigani, uning ifodali o'qiganidan, asar yuzasidan berilgan savollarga javobidan aniqlaniladi. Ongli o'qish bilan ifodali o'qish biri – ikkinchisini taqazo etadi. Ifodali o'qish. Asrani uning g'oyasiga, yozuvchining niyatiga mos ravishda o'qish, asar jozibasini ifodalab, ravon, aniq, to'g'ri o'qish ifodali o'qish deyiladi. Ifodali o'qish adabiyotni aniq va ko'rgazmali o'qitishning dastlabki va asosiy formasidir. O'qituvchi, ifodali o'qish orqali asar mazmunini va emotsionalligini o'quvchialarga ko'rgazmali ravishda yetkazadi. Intonatsiya – urg'u, temp, ritm, to'xtam, ovozning baland – pastligining yig'indisi. Bular og'zaki nutq elementlaridir. Bu orqali qahramonlarning turli kayfiyatlari, ichki kechinmalri ifoda etiladi. Ifodali o'qishni egallashning asosiy shartlari:

1. Nafasni to'g'ri olish va to'g'ri sarflash.

2. Tovushlarni aniq talaffuz qilish, burro gapirish.

3. Adabiy talaffuz normalarini egallash.

Bular ifodali nutqqa ham taaluqli. Ifodali o'qish shartlaridan yana biri ovozning baland – pastligi, yoqimlilik, tinish o'rnini asar mazmuniga mos holda o'zgartira olishlik. Ifodali o'qishga tayyorlanish shartli ravishda 3 bosqichga bo'linadi:

1. Qahramonlarning xatti –harakatini tahlil qilish, g'oyasini belgilash, badiiy vositalarning vazifasini tushunish. Demak, asar tahlili ifodali o'qishni ta'minlaydi.

2. Pauzaning, urg'uning o'rnini, nutq tempini belgilab olish.

3. O'qishni mashq qilish.



Avvalo, o'qituvchiifodali o'qish namunasini ko'rsatishi zarur. Ifodalilik ko'rgazmalilik demakdir. O'qish darslari o'quvchilar fikrini va nutqini o'stirish, hamda o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantiruvchi xususiyatlar bilan boshqa o'quv predmetlari orasida alohida o'rin tutadi. O'qish darslari jarayonida o'quvchilarning o'qish malakalari nakomillashib, to'g'ri, ongli vaifodali o'qish, badiiy asar g'oyasini tushunish qobiliyatlari o'sib boradi. "O'qish kitobi"dagi turli janrlarga xos bo'lgan badiiy asarlarni o'qish va ular ustida ishlash orqali o'quvchilarning borliq, voqelik haqidagi tasavvur – tushunchalari kengayadi. 1-sinfda o'quvchilar ongli, turli va bir me'yorda bo'g'inlab o'qish malakasini egallaydilar. Ayrim nutq tovushlarining talaffuzidagi qiyinchiliklar bartaraf etiladi. O'quvchilar o'qigan matnlarning mazmunini o'qituvchining yordamchi savollari asosida hamda kichik hajmdagi matn mazmunini unga ishlangan rasmdan foydalanib, so'zlab berishga o'rganib boradilar. 2-sinfda o'quvchilarda so'zni butunicha o'qish malakalari shakllanadi va ongli, to'g'ri, ifodali o'qishga intilish yaqqol seziladi. O'qish tezligi ortadi. Ayrim matnlarni ovoz chiqarmay mustaqil o'qiy boshlaydilar. O'qish va matnni savollar asosida hikoyalashda o'quvchilar nutqining to'g'ri va aniq bo'lishiga, nutqda so'zlardan o'rinli foydalanishlarga e'tibor beriladi. 3-sinfda o'quvchilar so'zlarni butunicha o'qish malakalarini to'la egallab, ongli va ifodali o'qishga ko'proq e'tibor beradilar. O'qilgan matn mazmunini mulohaza qilish, voqealar yo'nalishini aniqlash qobiliyatiga ega bo'ladilar. Bu sinfda o'qilgan asarning badiiy – tasviriy xususiyatlari ustida ishlash davom ettiriladi. 3 – sinf o'quvchilariga o'zaro fikr olishuv jarayonida xalq maqollari va obrazli ifodalardan o'rinli foydalanish, adabiy talaffuz normalariga rioya qilishga o'rgatiladi. 4 –sinfda o'quvchilar matndagi so'zlarni butunicha ma'nosiga tushunib to'g'ri o'qish malakalarini to'la egallaydilar. O'qiganlari mazmunini qayta hikoyalsh, matnni qismlarga bo'lish va soda reja tuzish vazifalarini bajara oladilar. O'qish va gapirish jarayonida o'quvchilarning abadiy normalariga rioya qilishlari talab qilinadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari yuqorida belgilangan talablar asosida o'z ishlarini natijasini nazorat qilib borishi kerak. O'qish darslarida darsning asosiy qismini o'quvchilarning o'qishiga ajratish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Oripov B. T. Darslarning samaradorligini oshirish yo'llari. Toshkent: 1983- yil.
2. Rahmonova Ye.R., Razzoqov D.N. "Pedagogik texnologiyalar" fanidan o'quv qo'llanma. –T.: 2007.